

O'ZBEKISTONDA BARQARORIQTISODIY O'SISH UCHUN INVESTITSIYA MUHITINI TA'MINLASH MASALALARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10679435>

Qo'chqarov Isfandiyor Xolbo'ta og'li

O'zMU 2-kurs talabsi

Maxmudova G.H

Ilmiy rahbar: i.f.d., prof

Annotatsiya

Ushbu maqolada O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlanishida unga investitsiyalarni keng ko'lamda jalb etish uchun qulay shart-sharoitlar yaratishning dolzarbligi ko'rib chiqilgan. Bunda investitsiyalarni huquqiy jihatdan himoyalashning amaliy mexanizmini ishlab chiqish va investitsion muhitni yanada yaxshilashga e'tibor qaratilgan. Iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish, korxonalarining investitsiya faoliyatini jadallashtirish, xorijdan tog'ridan tog'ri investitsiyalarni olib kirish, texnik va texnologik jihatdan qayta qurollantirish dasturini amalga oshirish masalalari o'rganilgan.

Kalit so'zlar

Investitsiya, xorijiy investitsiyalar, iqtisodiyotning rivojlanishi, korxonalarining investitsiyalari, aholi, yangi ish o'rinlari, modernizatsiya.

ВОПРОСЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ИНВЕСТИЦИОННОЙ СРЕДЫ ДЛЯ УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА

Аннотация:

В данной статье рассматривается важность создания благоприятных условий для привлечения масштабных инвестиций в развитие экономики Узбекистана. При этом внимание уделяется разработке практического механизма правовой защиты инвестиций и дальнейшему улучшению инвестиционной среды. Изучены вопросы дальнейшего углубления структурных изменений в экономике, ускорения инвестиционной деятельности предприятий, привлечения прямых инвестиций из-за границы, реализации программы технического и технологического перевооружения.

Ключевые слова

Инвестиции, иностранные инвестиции, экономическое развитие, инвестиции предприятий, население, новые рабочие места, модернизация.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uning iqtisodiyotini yuksak darajaga olib chiqish uchun xizmat qiladi.

So'ngi bir necha yillar ichida O'zbekiston jadal o'zgarishlarni boshdan kechirdi. Xalqaro hamjamiyatda biznes va investitsiyalar uchun turli xil to'siqlarni bartaraf etdi hamda jahon xamjamiyatida yangilanish hamda qa'tiyatlik ramzlari biri sifatida toboro ko'proq namoyon bo'lib kelmoqda.

Investitsiyalar – takror ishlab chiqarish va umuman iqtisodiy o'sishning moliyaviy manbai ishlab chiqaruvchi kuchlar va iqtisodiy munosabatlar tizimini rivojlanishini belgilovchi omildir.

O'zbekistonning iqtisodiyotini rivojlantirishda davlatning investetsion siyosatini ham aytib o'tishimiz mumkin. Davlat investetsion siyosatini shakllantirishning maqsad va vazifalari xorijiy investorlarning manfaatli qiziqishlaridan keliob chiqadi. Xorijiy investorlarining qoplanish mudati, investitsiyalarning kapitallashuv jarayonlari tomonlar ulushlari foydaning bo'linishi shuningdek mamlakatda bozor mexanizmlarining ishlash tartiblari va bunga rivojlangan ekspartyor davlatlar va halqaro tashkilotlarning munosabatlari masalariga etiborni qaratadi. Siyosat ma'lum bir maqsaddagi vazifalarni amalga oshirishdagi harakat tizimidir. Investitsiya siyosati investetsion faoliyatni tashkil etish va uni amalga oshirishdagi harakatlar yigindisini aks ettiradi. Davlat iqtisodiy siyosatining muhim turlaridan biri bu – investetsion siyosatidir. Investetsion munosabatlarning bunday tomonlari mamlakat ichkarisidagi hukumat tomonidan ishlab chiqiladigan va qabul qilinadigan qarorlar va qonon – qoidalar bilan yaratiladi. Investetsion faoliyatni samarali olib borishga qaratilgan hukumat tomonidan qabul qilinadigan tadbirlar tizimiga investitsiya siyosati deyiladi. Investitsiya siyosati davlatning ijtimoiy,iqtisodiy va siyosiy rivojlanishdagi doimiy maqsadli faoliyatlarning muhim bir qismi hisoblanadi. Investitsiya siyosati davlat siyosiy faoliyatining asosi hisoblanadi. Mamlakatning ishlab chiqarish salohiyati, iqtisodiy rivojlanish darajalari, moddiy va manaviy ishlab chiqarish sifatlari va hajmining o'sishi, ishlab chiqarish infrastrukturasining taraqqiyoti ko'p jihatdan investitsiyalar va investitsiya siyosatiga bog'liq bo'ladi. Investetsion faoliyatining muhim bosqichi ko'proq investetsion siyosatga ta'luqli bo'lib , davlat mamlakat ichkarisida investetsion faoliyatni hukumat tadbirlari orqali muvofiqlashtirib boradi. Investetsion siyosat jamiyatda moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish sohalariga maqsadli va ilmiy asoslangan investitsiyalar jalb qilishni o'zida aks ettiradi.

Mamlakatni ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy rivojlanishida investitsiyalarning jumladan xorijiy investitsiyalarning ahamiyati kattadir. Ma'lumki har qanday davlat dunyodan ajralgan holda jahon tajribalarini o'rganmasdan, dunyoning yetakchi davrlarini ilm, fan va texnika sohasida erishgan yutuqlari qabul qilmasdan rivojlanishi mumkin emas. O'zbekiston iqtisodiyotida chuqur iqtisodiy islohotlar, va tarkibiy o'zgarishlar amalga oshirilgan ekan, xorijiy investitsiyalar rivojisiz tasavvur etib bo'lmaydi. O'zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek "Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, qaysi davlat faol investitsiya siyosatini yuritgan bo'lsa o'z iqtisodiyotining barqaror o'sishiga erishgan. Shu sababli ham investitsiya - bu iqtisodiyot drayveri, o'zbekcha aytganda iqtisodiyotning yuragi, desak mubolag'a bo'lmaydi"²³

Jahon hamjamiyatida globalizatsiya jarayoni kechmoqda. Globalizatsiya jarayoniga qo'shilish bu dunyoning yetakchi davlatlariga bilan hamkorlikda bo'lish ijtimoiy iqtisodiy va siyosiy sohada davlat siyosatining o'zaro manfaatli asosda bu davlatlar siyosatiga mos kelishdir. Zamonaviy xalqaro iqtisodiyot uchun investitsiya faolligi va jahon iqtisodiyoti globallashuvining kuchayishi muhim ahamiyat kasb etadi. Rivojlanayotgan mamlakatlar va bozor iqtisodiyotiga o'tish davrini boshidan kechirayotgan davlatning xalqaro mehnat taqsimotidagi ro'li ortib borayotganligi ham unga ijobiy tasir ko'rsatadi.

Shuningdek, globallashuv jarayoniga iqtisodiyotni erkinlashtirish ilmiy texnika taraqqiyotining tezlashishi, raqobatning kuchyishi va boshqa bor qator omillar ham xosdir. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, strategik investerlar ko'p miqdordagi mablag'larni birinchi navbatda iqtisodiyoti o'z ichki imkoniyatlari asosida barqaror va izchil ravishda rivojlanayotgan mamlakatlarga yo'naltiriladi. Aynan shunday mamlakatlardagina qo'yilgan mablag'lar saqlanishiga va barqaror foyda olishga mo'ljal qilsa bo'ladi. Ichki va chet el investitsiyalarini birinchi navbatda minimal darajadagi soliq imtiyozlarini emas balki biznesdagi keying qulay va maqbul istiqbollarni qiziqtiradi.

MDH davlatlarining paydo bo'lishi bilan xorijiy investorlarning investitsion faoliyatlarini amalga oshirishdagi yangi imkoniyatlar maydoni paydo bo'ldi. Shuni aytish kerakki xorijiy investorlar bu masalada katta tajribaga ega. Albatda bu masalada bir Tomoni bo'lsa, ikkinchi tomondan investitsiyalarni qabul qiluvchi (MDH) davlatlari uchun zamonaviy ishlab chiqarish vositalarini qabul qilishdagi investitsion tanlov imkoniyati yaratildi. Bunda oddiy hol deb qarash kerak emas,

²³ "Xalq so'zi" gazetasi 2018 yil 28 dekabr

chunki investitsiyalar iqtisodiyotni harakatga kelteruvchi, uni olg'a harakatga kelteruvchi kuch hisoblanadi.

Hududlarga xorijiy investitsiyalarni jalb etish mamlakatimizga xorijiy investitsiyalar ko'magida korxonalariga zamonaviy texnik-texnologiyalar joriy qilib, eksportga mo'ljallangan mahsulotlar ishlab chiqarish rivojlanadi, import o'rnini bosuvchi ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, va buning uchun xorijiy investitsiyalarni iqtisodiyotning ustuvor sohalariga yo'naltirish va pirovardida aholining turmush darajasini oshirish imkoni yaratiladi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini jadallashtirish orqali o'sib borayotgan aholini ish joylari bilan ta'minlashga ko'maklashadi, korxonalarining eskirgan ishlab chiqarish quvvatlari, moddiy-texnik bazasi yangilanadi va texnik qayta qurollanadi, tabiiy resurslarni qayta ishlovchi korxonalar barpo etiladi.

Birinchidan, iqtisodiyot tarmoqlariga xorijiy investitsiyalarni jalb etishni kelgusida takomillashtirish yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlariga erishishga, yangi turdagi raqobatbardosh mahsulotlarning ishlab chiqarilishiga va eng muhimi mamlakatimiz mintaqalarida yangi ish o'rinlarining yaratilishiga, shu orqali aholi turmush tarzining yanada yaxshilanishiga xizmat qiladi. Xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish asosida ishlab chiqarishga zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy etib, eksportga mo'ljallangan mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantiradi. Hukumat kafolati asosidagi xorijiy investitsiyalarning jalb qilinishi chet ellik investorlarda mamlakatimiz iqtisodiyotiga qiziqish uyg'otadi.

Ikkinchidan, import o'rnini bosuvchi tovar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish va buning uchun xorijiy investitsiyalarni iqtisodiyotni ustuvor sohalariga yo'naltirish, pirovardida, aholining me'yordagi turmush darajasini ta'minlashga imkon yaratadi.

Uchinchidan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini jadallashtirish orqali o'sib borayotgan aholini ish joylari bilan ta'minlaydi.

To'rtinchidan, korxonalarining eskirgan ishlab chiqarish quvvatlarini, moddiy-texnika bazasini yangilaydi va texnik qayta qurollantiradi, tabiiy resurslarni qayta ishlovchi korxonalarini barpo etishga ko'maklashadi.

Mamlakatimizda xorijiy investitsiyalarni milliy korxonalariga jalb etishda quyidagi ustuvor yo'nalishlarni belgilash maqsadga muvofiqdir:

- qishloq xo'jalik mahsulotlarini chuqur qayta ishlash sohalarini rivojlantirish;
- mineral xom ashyo resurslarini, shu jumladan, neft va gazni qazib chiqarish, qayta ishlash bo'yicha ekologik ishlab chiqarishni tashkil etish;

- transport va telekommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish;
- iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida ilm talab va jahon bozorlarida raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni tashkil etish;

- turizm sohasini rivojlantirish, xalqaro va ichki turizmning zamonaviy infratuzilmasini yaratishga erishish.

Mamlakatimiz hududlarining barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash respublikamizda yuritilayotgan iqtisodiy siyosatning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lmoqda. Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlanishi, turmush sharoitlarining yaxshilanishi ham bevosita ularning iqtisodiyoti rivojlanishi bilan bog'liq. Mamlakat iqtisodiyoti hududlardan tarkib topgan bir butun tizimni tashkil etgani sababli, uning har bir mintaqasidagi rivojlanishni ta'minlash mamlakatimizning uzluksiz taraqqiyotiga zamin yaratadi. Shunday ekan, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda mamlakat va uning mintaqalarida yaratilgan investitsion jozibadorlik va nisbiy afzalliklar muhim o'rin tutadi.

Undan tashqari O'zbekistondan horijdan kirib kelgan asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarni olib qaraydigan bo'lsak. (1-jadval)

Hududlar	2018	2019	2020	2021	2022
O'zbekiston Respublikasi	129,9	138,1	95,6	102,9	100,2
Qoraqalpog'iston Respublikasi	169,9	100,3	69,9	105,1	114,9
Andijon	113,7	129,0	110,6	106,0	116,5
Buxoro	60,6	95,9	104,7	147,4	94,2
Jizzax	158,1	194,9	147,4	72,4	104,6
Qashqadaryo	112,4	131,2	76,5	77,8	80,0
Navoiy	188,0	144,3	77,1	86,0	109,4
Namangan	178,1	131,1	88,0	100,5	104,2
Samarqand	131,4	134,5	128,8	98,7	111,6
Surxondaryo	164,2	144,0	77,4	109,7	87,5
Sirdaryo	131,0	186,0	111,2	107,7	135,1
Toshkent	139,9	158,5	92,2	120,3	110,7
Farg'ona	145,9	132,0	113,5	105,7	112,4
Xorazm	111,7	150,7	92,7	139,3	94,2
Toshkent sh.	138,2	145,8	108,6	105,0	87,2

Yuqorida jadval 2022 yildagi statistikasini ko'rib turibmiz bunda O'zbekiston Respublikasi 2021 - yilga nisbatan (2.62%) kam asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya kiritilgan. Hududlar kesimida olib qaraydigan bo'lsak

Qoraqolpog'iston Respublikasi (9.32%) ko'p, Andijon viloyati (9.9%) ko'p, Buxoro viloyati (36.09%) kam, Jizzax viloyati (44.47%) ko'p, Qashqadaryo viloyati (2.82%) ko'p, Navoiy viloyati (27.2%) ko'p, Namangan viloyati (3.68%) ko'p, Samarqand viloyati (13.06%) ko'p, Surxandaryo viloyati (20.23%) kam, Sirdaryo viloyati (25.44%) ko'p, Toshkent viloyati (7.98%) kam, Farg'ona viloyati (6.33%) ko'p, Xorazm viloyati (32.37%) kam Toshkent shahri esa (16.95%) kam miqdorda xorijdan O'zbekistonga asosiy kapitalga nisbatan investitsiya kiritilganini aytib o'tishimiz kerak.

O'rganishlar shuni ko'rsatadiki, investitsiyalarni jalb qilishga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatadi:

Ijtimoiy omillar:

Xususiyl mulk va xorijiy investitsiyalarga bo'lgan mahalliy aholining munosabati;

Ishchilar qatlamining ijtimoiy faolligi;

Jamiyatdagi demokratik ongning yaxlitlik darajasi;

Umuman barcha qatlamdagi aholining intellektual salohiyati;

Jamiyatni ijtimoiy rivojlantirish bo'yicha ilg'or g'oyalarning mavjudligi;

Iqtisodiy omillar:

Iqtisodiyotning umumiy va barqaror holati;

Inflyatsiya darajasining bir maromda belgilangan parametrlarda bo'lishi;

Kredit hajmi va uning foiz stavkasi;

Iqtisodiy faol va faol bo'lmagan ishchi kuchidan foydalanish tartibi;

Valyuta kursining belgilangan me'yorda saqlanib turishi;

Ma'lum bir mahsulot yoki xizmat turiga nisbatan ichki va tashqi bozordagi talab hamda taklif o'rtasidagi munosabat;

• Soliq imtiyozlari va soliq yukini yengillashtirish imkoniyatlari;

Bojxonadagi imtiyozlar;

Siyosiy omillar:

Siyosiy barqarorlik, ya'ni har bir mamlakatda hukm surayotgan tinchlik va osoyishtalik darajasi;

Xalqaro kelishuvlarga rioya qilish va ularga amal qilish darajasi;

Davlatning iqtisodiyotda tutgan o'rni;

Davlat organlarining samarali faoliyat olib borayotganlik darajasi;

Investitsiyalarga nisbatan davlatning investitsion siyosati;

Davlatning turli xalqaro birjalarda ishtirok etishi va bitimlarga ega bo'lishlilik darajasi.

Yuqoridagi omillarni mamalakatimiz iqtisodiyotida amal qilish darajasini oshirish orqali biz iqtisodiyotimizga ko`proq xorijiy investitsiyalarni jalb qila olamiz. Milliy iqtisodiyotga chet el kapitalini jalb etish va uning faoliyatini tartibga solish, boshqarish va rag`batlantirish masalalarini tadqiq etish muhimdir. Chet el investitsiyalari hajmining o`shishiga ijobiy ta`sir ko`rsatgan omillarga iqtisodiyotda

xususiyl mulkning yuqori mavqei va takomillashgan raqobat muhitining mavjudligi, mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy barqarorlik, keng va to`lovga qobiliyatli, rivojlangan iste`mol bozorining mavjudligi, boy va turli xildagi tabiiy resurslar zaxiralarining mavjudligi, erkin iqtisodiy siyosatning tanlanganligi, xorijiy kapital uchun turli iqtisodiy imtiyozlar va rag`batlantirish tizimining joriy etilganligi, aholining intellektual salohiyati yuqoriligi va bundan ishlab chiqarish maqsadlarida foydalanish imkoniyatlari kengligi, chet el kapitalining erkin faoliyati uchun tegishli institutsional tizimning barqarorligi va nisbatan uzoq muddatga mo`ljallanganligi kabilarni kiritish mumkin.

FOYDALANILGAN ADBIYOTLAR.

1 "Investitsiya va inavatsiyalar" kitobi To`xliyev Bozor Karimovich Toshkent 2021 yil 75-78 betlar

2 www.researchgate.net O`zbekiston iqtisodiyotini samarali foydalanish

3 www.lex.uz/uz/docs/-4776669

4 www.cyberleninka.ru/article/n/milliy-iqtisodiyotga-xorijiy-investitsiyalarni-jalb-qilishning-moliyaviy-mexanizmlarini-takomillashtirish